IJTIMOIY HIMOYA SOHASIDAGI KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

# PARVARISH XIZMATLARINI KO‘RSATISH BO‘YICHA MUTAXASSIS VA XODIMLAR



“Parvarish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha mutaxassis va xodimlar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,
Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni
rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi, 2026.

QCL7527

**KASBIY STANDART**

**Parvarish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha mutaxassis va xodimlar**

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0158

## I. Umumiy ma’lumotlar

**1.** Kasbiy standartning qoʻllanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart “Parvarishlash xizmatlarini koʻrsatuvchi xodim” va “Parvarishlash xizmatlarini tashkil qilish boʻyicha professional mutaxassis” kasblari boʻyicha mehnat funksiyalari, mehnat vazifalari, bilim, koʻnikma, mas’uliyat va mustaqilligi (kompetensiyalari)ga qoʻyiladigan amaliy talablar majmuasi boʻlib, ta’lim dasturlari va baholash vositalarini ishlab chiqish, malaka talablarini belgilash, malakani mustaqil baholash hamda tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yoʻnalishlarida qoʻllaniladi.

Mehnat bozori talablari, ta’lim va baholash tizimi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ta’minlagan holda, kadrlar salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**2.** Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur boʻladigan, oʻrganilgan va oʻzlashtirilgan ma’lumotlar;

dalillarga asoslangan amaliyot – ilmiy ma’lumotlar, kasbiy tajriba va ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning afzalliklarini integratsiya qilishga asoslangan amaliyot;

ijtimoiy himoya – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning (oilaning) toʻlaqonli hayot kechirish jarayonida yuzaga kelgan ogʻir ijtimoiy vaziyat bilan bogʻliq cheklovlarni yengishi va jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun boshqa shaxslar bilan teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan chora-tadbirlar;

ijtimoiy ish – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning (oilalarning) imkoniyatlarini va salohiyatini oshirishga koʻmaklashadigan, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordamni rivojlantirish orqali jamiyatda ijtimoiy oʻzgarishlarga olib keladigan kasbiy faoliyat sohasi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs – oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslar, nogironligi boʻlgan shaxslar (bolalar), odam savdosidan jabrlangan shaxslar, yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar, nazoratsiz va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar, tazyiq va zoʻravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari, zoʻravonlikdan jabrlangan bolalar, ijtimoiy reyestrga

kiritilgan oilalarda yashovchi shaxslar, favqulodda vaziyatlardan jabrlangan shaxslar, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan shaxslar, muayyan yashash joyiga ega boʻlmagan ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi, Oʻzbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan chet el fuqarosi va fuqaroligi boʻlmagan shaxs;

inklyuziya – jamiyatning barcha aʼzolari, xususan, jismoniy, ruhiy, sensor yoki intellektual xususiyatlari boshqalardan farq qiladigan insonlarni ijtimoiy hayotga toʻliq jalb qilish jarayoni;

kasb – koʻnikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini oʻz ichiga olgan tizimlashtirilgan roʻyxat;

kasbiy standart – norasmiy va norasmiy taʼlimni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, koʻnikma, masʼuliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qoʻyiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini maʼlum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qoʻllay olish;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

kuzatish (holat monitoringi) — ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy holatidagi oʻzgarishlarni kasbiy baholash oʻtkazmasdan tizimli ravishda kuzatib borish;

maxfiylik – ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxs haqidagi maʼlumotlarni uning roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik majburiyati, hayot va sogʻliqqa tahdid holatlari bundan mustasno;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi (ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxs) – ijtimoiy xizmatlar koʻrsatiladigan jismoniy shaxs yoki oila;

ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining qadr-qimmati – har qanday turdagi yordam koʻrsatishda ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsiga hurmat bilan va individual yondashishni nazarda tutuvchi prinsip;

oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslar – Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan shaxslarni funksionallik imkoniyatlari va parvarishga muhtojlik darajasi oʻrganilib, oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxs deb eʼtirof etilgan shaxslar;

birinchi darajali sertifikatli parvarishlovchi xodim – asosiy amaliy bilim va koʻnikmalarga ega, nisbatan murakkab boʻlmagan holatlar bilan ishlovchi, amaliy xodim sifatida rahbarning koʻrsatma va maslahatlari asosida standart ishlarni ishonchli bajaruvchi, 62 soatlik boshlangʻich tayyorgarlik boʻyicha sertifikatga ega xodim;

ikkinchi darajali sertifikatli parvarishlovchi xodim – keng amaliy bilim va tajribaga ega, juda murakkab holatlarga ham javob beruvchi, boshqalarga namuna boʻlib, yangi xodimlar va kichiklarni oʻrgatish imkoniyatlari bor, foydalanuvchining ehtiyojlari va holati oʻzgarishiga mos ravishda harakat qila oladigan, favqulodda vaziyatlarda toʻgʻri harakat qiluvchi, superviziya va xizmat sifatini boshqara oluvchi, 144 soatlik tayyorgarlik boʻyicha sertifikatga ega xodim.

parvarishlash xizmatlarini tashkil qilish boʻyicha professional mutaxassis – butun parvarish jarayonining koordinatori va nazoratchisi hisoblanib, xizmatga ehtiyojni aniqlash, individual reja tuzish, oʻzgartirish, xizmatlarni bir-biriga bogʻlash, xizmat koʻrsatuvchilar xizmati natijasini kuzatish, baholash va boshqa parvarish xizmatini muvofiqlashtirish boʻyicha vazifalarni amalga oshiruvchi mutaxassis.

**3.** Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyuldagi “Ijtimoiy ish toʻgʻrisida” 415-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-82-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-apreldagi “Ruhiy holati buzilgan nogironligi boʻlgan shaxslarga ijtimoiy xizmat koʻrsatish tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF–69-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi “Oʻzgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-410-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi “Oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish toʻgʻrisida”gi 123-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi “Oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatuvchi Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash markazlari faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi 316-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-avgustdagi “Aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 484-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 369-son qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-iyundagi “Oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga vaucher asosida yangi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish tartibini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 376-son qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi “Ruhiy holati buzilgan nogironligi boʻlgan shaxslar uchun internat muassasalarini takomillashtirish va yangi ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 271-son qarori.

**4.** Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qoʻllaniladi:

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

NBSH – Nogironligi boʻlgan shaxs;

POM – Protez ortopediya mahsulotlari;

RTV – Reabilitatsiya texnikasi vositalari;

TIEK – Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

QCL7527

## II. Kasbiy standartning pasporti

<table>
<tr><td>1.</td><td>Kasbiy standartning nomi:</td><td colspan="2">Parvarish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha mutaxassis va xodimlar</td></tr>
<tr><td>2.</td><td>Faoliyatning asosiy maqsadi:</td><td colspan="2">Shaxslar, oilalarning toʻliq ijtimoiy faoliyatiga toʻsqinlik qilayotgan buzilgan yoki yoʻqotilgan funksiyalarini qoplash, parvarish yukini yengillatish yoʻli bilan ularning ijtimoiy huquq va kafolatlarini amalga oshirishda koʻmaklashish;<br>kompleks professional parvarish xizmatlarini koʻrsatishni ta’minlash;<br>ehtiyojlarga mos individual yondashuvdagi professional parvarish xizmatlari koʻrsatilishini tashkil etish va parvarish sohasidagi multidissiplinar yondashuvni muvofiqlashtirish.</td></tr>
<tr><td>3.</td><td>IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf:</td><td colspan="2">R seksiyasi<br>Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish.<br>87. Yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash<br>87.3. Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yashash joyi bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyati<br>87.30. Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yashash joyi bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyati<br>87.30.0. Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yashash joyi bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyati<br>87.9. Yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari<br>87.91. Yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyati uchun vositachilik xizmati faoliyati<br>87.91.0. Yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyati uchun vositachilik xizmati faoliyati<br>87.99. Boshqa toifalarga kiritilmagan yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari<br>87.99.0. Boshqa toifalarga kiritilmagan yashash uchun joy bilan ta’minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari</td></tr>
<tr><td>4.</td><td>Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:</td><td colspan="2">Parvarish xodimlarini milliy sertifikatlash tartibini joriy qilish;<br>Parvarish xizmatlarini koʻrsatilishida idoralararo hamkorlik va muvofiqlashtirishni ta’minlash;<br>Parvarish xizmatlari samaradorligi va amaliyot natijalarini baholash tizimini yaratish;<br>aholining etnik, madaniy va diniy xususiyatlaridan kelib chiqib, shaxsning qadr qimmati va inson huquqlari tamoyillari asosida sifatli ijtimoiy parvarish xizmatlarini koʻrsatilishini ta’minlash;<br>Madaniy kompetentlik va Oʻzbekiston Respublikasining koʻp millatli jamiyati ichki va tashqi resurslar xususiyatlarini hisobga olgan holda parvarishda ijtimoiy integratsiya va inklyuziyani amalga oshirish;</td></tr>
<tr><td rowspan="3">5.</td><td rowspan="3">Qamrab olingan kasblar roʻyxati va malaka darajasi:</td><td>Kasblar kodi va nomi:</td><td>TMR dagi malaka darajasi:</td></tr>
<tr><td>53220 Parvarishlash xizmatlarini koʻrsatuvchi xodim</td><td>3</td></tr>
<tr><td>26351 Parvarishlash xizmatlarini tashkil qilish boʻyicha professional mutaxassis</td><td>6</td></tr>
</table>

## III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---|---|---|---|---|---|
| T/r | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 53220 Parvarishlash xizmatlarini koʻrsatuvchi xodim | A1.3 | Oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni parvarishlash | A1.01.3 | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining holatini kuzatish, oʻzgarishlarni aniqlash va parvarishga boʻlgan ehtiyojini qondirish orqali hayot sifatini yaxshilash |
| | | | | A1.02.3 | Kundalik hayot faoliyatida mustaqillikni qoʻllab-quvvatlash, jismoniy faollashtirish, xavfsiz yashash muhitini tashkil etish, harakatlanishga koʻmaklashish va hamrohlik qilish |
| | | A2.3 | Oʻzgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga uy sharoitida ijtimoiy-maishiy xizmatlar koʻrsatish | A2.01.3 | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining holatini kuzatish, xatarlarni aniqlash va mutaxassisni xabardor qilish, zarur oziq-ovqat, gigiyena vositalari va dori-darmonlarni yetkazib berish |
| | | | | A2.02.3 | Yashashning maishiy sharoitlarini vizual baholash va xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlagan holda, ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchilarning xavfsiz maishiy yashash sharoitlarini ta'minlashda yordam koʻrsatish |
| | | A3.3 | Maxsuslashtirilgan parvarish xizmatlarini koʻrsatish | A3.01.3 | Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qoʻllagan holda nogironligi boʻlgan shaxslarning reabilitatsiya faoliyatida koʻmaklashish va ularni qoʻllab-quvvatlash |
| | | | | A3.02.3 | Keksa yoshdagi, oʻzgalar parvarishiga muhtoj nogironligi boʻlgan, shu jumladan ruhiy holati buzilgan hamda palliativ yordamga muhtoj boʻlgan shaxslarga tibbiy koʻrsatmalar asosida maxsuslashtirilgan parvarishlash xizmatlarini koʻrsatish |

QCL7527

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | A.4.3 | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi va jamiyat hayotida ishtirok etishiga yordam berish, institutsionallashuvining oldini olish | A4.01.3 | O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar uchun ijtimoiy izolyatsiya omillarini bartaraf qilish, ularning institutsionallashuvining oldini olish va uy muhitini saqlab qolishda ko‘maklashish |
| | | | | A4.02.3 | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchilarning etnik, til, diniy va madaniy xilma-xilliklarini va shaxsiy tanlovini inobatga olgan holda, ularning ijtimoiy integratsiyasi hamda jamiyat hayotida ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va tyutorlik faoliyatini amalga oshirish |
| | 26351 Parvarishlash xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha professional mutaxassis | B1.6 | Parvarishlash xizmatlarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida multidissiplinar hamkorlikda tashkil qilish va muvofiqlashtirish | B1.01.6 | Parvarishlash xizmatlariga ehtiyojni multidissiplinar hamkorlikda aniqlash va individual parvarishlash rejasini ishlab chiqish |
| | | | | B1.02.6 | Parvarishlash xizmatlarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida multidissiplinar hamkorlikda tashkil qilish va samaradorligini baholash |
| | | B2.6 | Xizmatlar va resurslarni xaritalash, jalb qilish va xizmati samaradorligini baholash | B2.01.6 | Tibbiy-ijtimoiy va multidissiplinar hamkorlikda amalga oshiriladigan xizmatlarni muvofiqlashtirish |
| | | | | B2.02.6 | Uyda yoki muassasada ko‘rsatiladigan uzoq muddatli parvarishlash xizmatlarini muvofiqlashtirish |
| | | B3.6 | Parvarish xodimlarini superviziya qilish va natijani baholash | B3.01.6 | Xizmat sifati, parvarish uslublarini tahlil qilish, murakkab vaziyatlarni boshqarish |
| | | | | B3.02.6 | Parvarish xodimlariga uslubiy (tyutor, kouching, ustozlik) rahbarlik qilish, faoliyat samaradorligini baholash va superviziya qilish |

QCL7527

## IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

| | |
|---|---|
| Kasbning nomi: | Parvarishlash xizmatlarini koʻrsatuvchi xodim |
| Mashgʻulot nomining kodi: | 53220 |
| TMR boʻyicha malaka darajasi | 3 |
| Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar: | Tavsiya etiladi |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar: | Ish staji yoki amaliy tajribaga ega boʻlganlarga ustuvorlik beriladi |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar: | 18 yoshga toʻlgan boʻlishi;<br>belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma’lumotlarni saralash va foydalanish uchun zarur boʻlgan amaliy va kognitiv koʻnikmalar;<br>ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxslar bilan samarali hamkorlik qilish va ularning turli ehtiyojlariga moslashish;<br>muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish;<br>parvarishlash xizmatlari standartlariga rioya qilish;<br>profilaktik va bazaviy parvarishlash xizmatlarini koʻrsatish;<br>bio-psixo-ijtimoiy yondashuv uslublarini tushunish;<br>shaxslarning funksional imkoniyatlarni baholash;<br>maqsad belgilash, jarayonni nazorat qilish, natijani tekshirish;<br>standartlar asosida parvarishlash xizmatlarining xavfsiz usullarini qoʻllash;<br>kasbiy faoliyatni shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida tashkil etish;<br>favqulodda holatlarda harakat qilish;<br>uy sharoitida zarur yordam koʻrsatishning professional usullarini qoʻllash;<br>zoʻravonlik, e’tiborsiz qoldirish, moliyaviy suiiste’mol belgilarini aniqlash;<br>ruhiy holat buzilishi, eshitish-nutq qiyinchiliklari boʻlgan shaxs bilan xavfsiz muloqotga kirishish;<br>jamoada va guruhda ishlash;<br>oʻz harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik;<br>o’z funksiyalari, huquq va majburiyatlarini anglash;<br>stressga chidamlilik va professional mulohaza yuritish;<br>vaziyatga moslashuvchanlik;<br>axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi prinsiplariga rioya qilish;<br>kasbiy superviziyada muntazam ishtirok etish, muntazam malaka oshirish;<br>oʻz mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonuniy yoʻllar bilan himoya qilish va oʻzini asrash;<br>oʻzaro hurmatda boʻlish va madaniyatli tinglay olish; |

QCL7527

| | |
|---|---|
| | raqamli kompetentlik: gadjetlardan foydalanish, vaucherni qabul qilish, tashrifni qayd etish, elektron kundalik yuritish;<br>kasbiy faoliyatida ish beruvchi bilan tizimli hamkorlikni ta’minlash;Kuzatuvchanlik, vijdonlilik, bosiqlik, ziyraklik, bag‘rikenglik, muloqotga kirishuvchanlik, beg‘arazlik, kompetensiyalariga ega bo‘lish; |
| Ta’lim darajasiga qo‘yilgan talablar: | 1) boshlang‘ich professional ta’lim<br>2) o‘rta maxsus ta’lim |
| Rasmiy va norasmiy ta’lim bilan bog‘liqligi: | umumiy o‘rta ta’lim + norasmiy (informal) ta’lim yoki amaliy tajriba |
| Kasbiy standartlar reyestrida mavjudligi: | - |
| Kasbning boshqa mumkin bo‘lgan nomlari: | |
| | |
| | |

| | | |
|---|---|---|
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | **TMR bo‘yicha malaka darajasi** | **Kasbning nomi** |
| | 6 | Parvarishlash xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha professional mutaxassis |

**Mehnat funksiyalarining tavsifi**

| **Kodi va nomi** | **Mehnat vazifalari**<br>**O‘qitish natijalari** | |
|---|---|---|
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| A1.3 - O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni parvarishlash | A1.01.3-Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining holatini kuzatish, o‘zgarishlarni aniqlash va parvarishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish orqali hayot sifatini yaxshilash | 1. Xizmatlarni shaxs ehtiyojlari, maqsadlari va kutilgan natijalari asosida tuzishni rejalashtirish va amalga oshirish |
| | | 2. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining zarur oziq-ovqat, sanitariya-gigiyena, parvarishlash yoki yordamchi vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarini suhbat (turli muloqot) orqali yoki vizual aniqlash |
| | | 3. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining holatini kuzatish, o‘zgarishlarni aniqlash |
| | | 4. Gigiyenik va parvarishlash xizmatlarini ko‘rsatish |
| | | 5. Tibbiy tavsiya va ehtiyojlarga muvofiq xavfsiz ovqatlanish, suyuqlik ichish, ovqat tayyorlashda yordam berish |
| | | 6. Harakat faolligini oshirish, hamrohlik qilish |
| | | 7. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi qadr-qimmati, huquqlari va mustaqilligini ta’minlash |
| | | 8. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi va uning oila a’zolariga parvarish bo‘yicha axborot berish, oila a’zolariga parvarish qilishni o‘rgatish |
| | | 9. Yiqilish, maishiy jarohat, yotoq yaralari xavfini kamaytirish choralarini ko‘rish |
| | | 10. Faoliyatni monitoring qilish va samaradorligini baholash |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Ichki va tashqi resurslarni baholash, ehtiyojlarni aniqlash |
| | | Uy muhiti va yordamchi vositalarga ehtiyojni aniqlash |
| | | Individual parvarish rejasini tuzish va amalga oshirilishini ta’minlash |
| | | Sezgir, ishonchli va madaniyatli muloqotga kirishish |
| | | Parvarish xizmatlarini mustaqil ravishda amalga oshirish va bajarish |
| | | Xizmat standartlari va parvarish usullariga rioya qilish |
| | | Parvarish xizmatlarini ko‘rsatishda oila va jamoa bilan hamkorlikni ta’minlash |
| | | Xizmat oluvchiga bio-psixo-ijtimoiy yondashuv va etika me’yorlari asosida xizmat ko‘rsatish |
| | | Kasbiy vakolat chegaralariga rioya qilish |
| | | Stressga chidamlilik |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Aholining yordamni qabul qilishga ta’sir etuvchi madaniy va diniy xususiyatlari, etik muloqot usullari |
| | | Inson huquqlari va ijtimoiy tenglik asoslari |
| | | Kasbiy faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari va parvarishlash etikasi asoslari |
| | | Parvarishlash xizmati standartlari |
| | | Bio-psixo-ijtimoiy yondashuv asoslari |
| | | Parvarishlash xizmatlari va yordam turlari |
| | | Xavf belgilari |
| | | Parvarish xizmatlarining maqsad va vazifalari, yordam ko‘rsatish usullari |
| | | Sog‘lom va xavfsiz ovqatlanish, organizmda suv balansini saqlash talablari |
| | | Parvarishlash xizmatlari va yordam turlari |
| | | Xizmat oluvchi holatida yomonlashuv belgilari, xavf omillari |
| | | Inqirozli yoki murakkab vaziyatlarda mutaxassislarga xabar berish tartibi |
| | | Zo‘ravonlik holatlari va himoya choralari |
| | | Moliyaviy xavfsizlik asoslari va xizmat oluvchi shaxsni firibgarlikdan himoya qilish usullari |
| | | Sanitariya-gigiyena, yong‘in va mehnat xavfsizligi talablari, infeksiya tarqalishining oldini olish |
| | | Ruhiy holatlar yoki demensiyani erta aniqlash ahamiyati |
| | | Kasbiy faoliyati bo‘yicha axborot tizimlari |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ijtimoiy vaziyatni va kundalik faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| | A1.02.3 - Kundalik hayot faoliyatida mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash, jismoniy faollashtirish, xavfsiz yashash muhitini tashkil etish, harakatlanishga ko‘maklashish va hamrohlik qilish | 2. Yotoq yaralari, yiqilish, maishiy jarohat, kontraktura, tromboz va dimlanish holatlari xavfini kamaytirish va parvarishga muhtojlikni oshiruvchi xavflarni baholash |
| | | 3. O‘z o‘ziga xizmat qilishga o‘rgatish |
| | | 4. Harakatlanish, o‘tirish va turish, yurish, tana holatini o‘zgartirish, tashqariga chiqishda, jismoniy tarbiya mashqlarini bajarishda yordam |
| | | 5. Yashash joyini xavfsiz va to‘siqsiz harakatlanish uchun moslashtirishda yordam berish |
| | | 6. Yordamchi vositalarni o‘rnatishda yordam berish va ulardan foydalanishni o‘rgatish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qo‘llash |
| | | Xavflarni baholash |
| | | Jismoniy faollashtirish usullarini qo‘llash |
| | | Jismoniy faollik va mustaqillikni rag‘batlantirish |
| | | ehtiyojlarga mos jismoniy tarbiya mashqlarini tanlash |
| | | Yashash joyini xavfsiz va to‘siqsiz harakatlanish uchun moslashtirish |
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchiga individual ehtiyojlari, bio-psixo-ijtimoiy yondashuv va etika me’yorlarini hisobga olgan holda xizmat ko‘rsatish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Jismoniy yordamning xavfsiz usullari |
| | | Xavf belgilari |
| | | Jismoniy faollashtirish usullari |
| | | Jismoniy faollik va mustaqillikni rag‘batlantirish usullari |
| | | Parvarish yordamlarining nazariy jihatlari |
| | | Bio-psixo-ijtimoiy yondashuv asoslari |
| | | Sanitariya-gigiyena, yong‘in va mehnat xavfsizligi talablari, Infeksiya tarqalishining oldini olish |
| | | Xizmat standartlarni va yordam ko‘rsatish usullarini bilish |
| | **Mas’uliyat va mustaqillik** | 1. Parvarishlash jarayonida jismoniy yordamning har qanday turi uchun xavfsiz usullarni qo‘llashda mas’uliyat |
| | | 2. Tibbiy tavsiyalar va ijtimoiy xizmat foydalanuvchilarining tanlovi asosida xavfsiz ovqatlanishni ta’minlashda mas’uliyat |
| | | 3. Ijtimoiy xizmat foydalanuvchilarining yashash joyini to‘siqsiz harakatlanishga mustaqil moslashtirish |
| | | 4. Individual jismoniy tarbiya mashqlarini mustaqil tanlash |
| | | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Uyga tashrif va xizmatlarni tasdiqlangan reja asosida amalga oshirish |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| A2.3 - O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga uy sharoitida ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko‘rsatish | A2.01.3 - Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining holatini kuzatish, xatarlarni aniqlash va mutaxassisni xabardor qilish, zarur oziq-ovqat, gigiyena vositalari va dori-darmonlarni yetkazib berish | 2. Ijtimoiy vaziyatini va ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning salomatligidagi o‘zgarishlar kuzatish |
| | | 3. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxs holatida aniqlangan yomonlashuv belgilari va xatarlar bo‘yicha mutaxassisga xabar berish |
| | | 4. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning oziq-ovqat, dori-darmon, sanitariya-gigiyena va parvarish vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash |
| | | 5. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning ehtiyojlariga muvofiq zarur tovar va xizmatlarni xarid qilish, to‘lovlarni amalga oshirish va yetkazib berishni ta’minlash. |
| | | 6. Parhez va kundalik ovqatlanish tartibiga rioya etilishini kuzatish, oziq-ovqat, yegulik va ichimliklarning xavfsiz, sanitar-gigiyenik talablar asosida saqlanishini nazorat qilish |
| | | 7. Maishiy xavfsizlikni ta’minlash, harakatlanishi cheklangan shaxslar uchun muhitni moslashtirish va zarur buyumlarning qo‘l yetadigan joyda bo‘lishini ta’minlash |
| | | 8. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning ehtiyojlari va xavfsizligiga doir xatarlarni aniqlash hamda ularni kamaytirish bo‘yicha takliflar kiritish |
| | | 9. Faoliyati natijasi bo‘yicha axborot tizimiga ma’lumot kiritish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Xizmat oluvchining individual ehtiyojlari, bio-psixo-ijtimoiy yondashuv va etika me’yorlarini hisobga olgan holda ijtimoiy maishiy xizmatlarini ko‘rsatish |
| | | Profilaktik va bazaviy parvarish tadbirlarini amalga oshirish |
| | | Sezgir, ishonchli va madaniyatli muloqotga kirishish |
| | | Vaziyatni kuzatish va maishiy xatarlarni vizual baholash |
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxs ehtiyojlarini aniqlash |
| | | Kasbiy faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari va parvarishlash etikasi talablariga rioya etish |
| | | To‘lovlarni mobil ilovalar orqali amalga oshirish |
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxslarning shaxsiy ma’lumotlari va moliyaviy xavfsizligini ta’minlash |
| | | Kasbiy kompetentlik chegaralariga rioya qilish |
| | | Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qo‘llash |
| | | Halollik va vijdonlilik tamoyillariga amal qilish |
| | | Axborot tizimiga ma’lumot kiritish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchilar huquqlari |
| | | Kasbiy faoliyatiga oid odob-axloq qoidalari va parvarishlash etikasi asoslari |
| | | Parvarishlash xizmatlari va yordam turlari |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi holatida yomonlashuv belgilari |
| | | Xatar omillari |
| | | Aholining yordamni qabul qilishga ta’sir etuvchi madaniy va diniy xususiyatlari |
| | | Muammoli vaziyatda ijtimoiy xodimga xabar berish holatlari |
| | | Inqirozli vaziyatlarda tezkor xizmatlarni chaqirish tartibi |
| | | Samarali muloqot usullari |
| | | Moliyaviy xavfsizlik asoslari |
| | | Sanitariya-gigiyena, yong‘in va mehnat xavfsizligi talablari |
| | | Kasbiy faoliyat bo‘yicha axborot tizimlari |
| | A2.02.3 — Yashashning maishiy sharoitlarini vizual baholash va xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlagan holda, ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxslarning xavfsiz maishiy yashash sharoitlarini ta’minlashda yordam ko‘rsatish | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning yashash joyidagi maishiy xavflar, e’tiborsizlik belgilarini aniqlash va mutaxassisni xabardor qilish |
| | | 2. Uy-joy va uy-joy ashyolariga sanitar-gigiyenik ishlov berish (artish, yuvish, tozalash), maishiy chiqindilarni chiqarishga ko‘maklashish |
| | | 3. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarini uy sharoitida yoki kimyoviy tozalashga ko‘maklashish |
| | | 4. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsga qarab turish (o‘rnidan turish, o‘tirish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirishda uning yiqilishi va jarohatlanishlarining oldini olish) |
| | | 5. Kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni naqd pul yoki mobil ilovalar orqali amalga oshirishda ko‘maklashish |
| | | 6. Davlat xizmatlari portallaridan foydalanishga ko‘maklashish |
| | | 7. Xizmat jarayonida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish |
| | | 8. Faoliyati natijasi bo‘yicha axborot tizimiga ma’lumot kiritish |
| | | **Ko‘nikmalar:** |
| | | Sezgir, ishonchli va madaniyatli muloqotga kirishish |
| | | Yashash sharoitlarini kuzatish |
| | | Yashash joyidagi maishiy xavflarni vizual baholash |
| | | Xavfsiz maishiy sharoitlar uchun to‘siqlarni aniqlash |
| | | Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qo‘llash |
| | | Maishiy xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etish birlamchi choralarini ko‘rish |
| | | Maishiy texnika va maishiy tozalash vositalaridan to‘g‘ri, xavfsiz foydalanish |
| | | Uy-joy va uy-joy ashyolariga sanitar-gigiyenik ishlov berish |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| | | Xizmat jarayonida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish |
| | | Sanitariya-gigiyena, yong'in va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish |
| | | Kasbiy kompetentlik chegaralariga rioya qilish |
| | | **Bilimlar:** |
| | | Kasbiy faoliyatiga doir odob-axloq qoidalari va parvarish etikasi asoslari |
| | | Parvarishlash xizmatlari va yordam turlari |
| | | Samarali muloqot usullari |
| | | Xavfsiz maishiy yashash sharoitlari omillari |
| | | Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning salomatligi yomonlashuvining birlamchi belgilari |
| | | Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi prinsiplari |
| | | Parvarishga muhtoj shaxslar uchun maishiy xavf tug'diruvchi omillar |
| | | To'siqsiz muhitga qo'yiladigan talablar (yoritgich, pandus, tutqich) |
| | | Aholining yordamni qabul qilishga ta'sir etuvchi madaniy va diniy xususiyatlari |
| | | Ijtimoiy xodimni xabardor qilishga sabab bo'luvchi omillar |
| | | Jismoniy yordam ko'rsatishning xavfsiz usullari |
| | | Kasbiy faoliyati bo'yicha axborot tizimlari |
| | | Sanitariya-gigiyena, yong'in va mehnat xavfsizligi talablari |
| | **Mas'uliyat va mustaqillik:** | 1. Kasbiy faoliyatini odob-axloq qoidalari va parvarishlash etikasiga, maxfiylik prinsiplariga hamda madaniy kompetentlikka rioya qilgan holda tashkil qilishda mas'uliyat |
| | | 2. Tashrif va xizmatlarni tasdiqlangan reja asosida kasbiy kompetentlik chegarasidan chiqmagan holda mustaqil amalga oshirish |
| | | 3. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchilarning madaniy va etnik xususiyatlari hamda diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, ularga ijtimoiy tenglik asosida xizmatlar ko'rsatishda mas'uliyat |
| | | 4. Muloqotda va xizmatlar ko'rsatishda ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining qadr-qimmati, huquqlari, mustaqilligi va tanlovining ustuvorligiga erishishda mas'uliyat |
| | | 5. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi pul mablag'larining xavfsiz sarflanishi va iqtisodiy firibgarlikdan himoya qilinishi uchun mas'uliyat va javobgarlik |
| | | 6. O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarning ovqatlanishiga ko'maklashishda, parhezga rioya qilinishida va oziq-ovqat, yegulik hamda ichimliklarning saqlanishida xavfsizlikni ta'minlashda mas'uliyat |

QCL7527

| | | |
|---|---|---|
| | | 7. Sanitariya-gigiyena, yong'in va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish orqali o'zi va ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsning xavfsizligini ta'minlashda mas'uliyat |
| | | 8. Ijtimoiy xodim bilan mustaqil ravishda hamkorlik qilish |
| A3.3 - Maxsuslashtirilgan parvarish xizmatlarini ko'rsatish | A3.01.3- Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qo'llagan holda nogironligi bo'lgan shaxslarning reabilitatsiya faoliyatida ko'maklashish va ularni qo'llab-quvvatlash | **Mehnat harakatlari:** |
| | | 1. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxslarning salomatlik holatidagi o'zgarishlarni kuzatish va birlamchi xavotirli belgilarni aniqlash |
| | | 2. Kundalik hayot faoliyati (ADL), harakatchanlik, jismoniy faollik va mustaqillikni saqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan reabilitatsiya tadbirlarida ko'maklashish |
| | | 3. Tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlari, POM va RTV larni olish va ulardan foydalanishda ko'maklashish, aniqlangan muammolar haqida mas'ul xodimlarni xabardor qilish |
| | | 4. O'z-o'ziga xizmat qilish, parvarishlash va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatish |
| | | 5. Sanitariya-gigiyena xizmatlarini ko'rsatish, dori qabul qilish rejimi va parhez talablariga rioya etilishini kuzatish |
| | | 6. Salomatlik holatidagi o'zgarishlar va xavotirli belgilarni aniqlash, birinchi yordam ko'rsatish hamda zaruratga ko'ra tibbiy xizmatlarga murojaat qilish |
| | | 7. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi shaxsni tibbiyot muassasalariga kuzatib borish va profilaktik tibbiy ko'riklarda ishtirok etishiga ko'maklashish |
| | | 8. Kuzatuv natijalari va aniqlangan simptomlar to'g'risida ijtimoiy va tibbiy muassasalarga axborot berish va idoralararo hamkorlikni qo'llab quvvatlash |
| | | **Ko'nikmalar:** |
| | | Profilaktik va bazaviy parvarish tadbirlarini amalga oshirish |
| | | Parvarishga muhtoj shaxsga uning yoshi, imkoniyatlari cheklanganlik darajasi, individual ehtiyojlari, bio-psixo-ijtimoiy yondashuv va etika me'yorlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish |
| | | Jismoniy mashqlar orqali harakat faolligini oshirish |
| | | Jismoniy yordamning xavfsiz usullarini qo'llash |
| | | Kompetentlik chegaralariga rioya qilish |
| | | Tana harorati, qon bosimini o'lchash |
